MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 9
Мусаев Озоджон Шавкат Огли
MAHALLIY BUDJETNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARINI BAHOLASH 15
Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РОЗНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 19
Султонмуродов Сардорбек Баходирович
OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 24
Egamov Sevinchbek
TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 29
B.B. Xanaliyev
SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK KORXONALAR INNOVASION RIVOJLANISHINI SSENARIYLI PROGNOZLASH 33
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
MILLIY MODA ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZLASHTIRISH SHARTLARI 38
Yusupova Moxinur Farxod qizi
HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 53
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
«ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ» 62
Хайруллаева Малика Шухратжон кизи
EMPIRICAL EVALUATION OF THE FACTORS ASSOCIATED WITH APPLICANT BEHAVIOUR IN HIGHER EDUCATION CHOICE: INDIVIDUAL CUT-OFFS, THRESHOLD HETEROGENEITY, AND THE LIMITS OF AGGREGATE DETECTION 68
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
SANOAT KORXONALARIDA DAVLAT XARIDLARI MOLIYAVIY RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH 80
Xamdamov Sardor Farmon o'g'li
OLIY TA'LIM MUASSASALARI SAMARADORLIGIGA MARKETING STRATEGIYASI OMILLARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (DEA–MALMQUIST–TOBIT MODELI ASOSIDA) 84
Egamov Sevinchbek
NEFT XOMASHYOSIDAN OLINUVCHI YO'L BITUMLARINING ASOSIY KOLLOID-KIMYOVIY VA EKSPLUATATSION XOSSALARIGA ULARNING UGLEVODOROD GURUH TARKIBINING TA'SIRINI TAHLILI 91
Abdullayeva Shoxista, Adizov Bobirjon
THE IMPACT OF LEADERSHIP SUPPORT ON ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 96
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila

QURILISH MATERIALLARI BOZORIDA TALAB ELASTIKLIGINI MAHSULOT SEGMENTLARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH METODIKASI 103
Turdiyev Abdullo Sagdullayevich
IQLIM RISKLARI VA BANK KREDIT PORTFELI SIFATI: XITOY TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN METODOLOGIK YONDASHUVLAR 110
Nasriyev Farxod
TIJORAT BANKLARIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI (“HAMKORBANK” ATB MISOLIDA) 116
Haydarova Shohista Shuhrat qizi
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 126
Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI 131
Umirov Abdisalom To‘rayevich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

Umirov Abdisalom To‘rayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD.
ORCID: 0009-0007-5191-694X,
E-mail: abdisalomumirov1975@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori raqobatbardoshligini oshirishning zamonaviy yo‘nalishlari yoritilgan. Raqobatbardoshlikni ta’minlashda sun’iy intellekt va analitika, B2B2C modeli asosidagi xizmatlar integratsiyasi, raqamli yetuklik, inson kapitali va kiberxavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan yondashuv taklif etilgan. Sug‘urta kompaniyalarining asosiy faoliyat ko‘rsatkichlari hamda raqamli xizmatlar rivoji bo‘yicha statistik ma’lumotlar asosida mazkur yo‘nalishlarning amaliy jihatlari ochib berilgan. Natijada sug‘urta tashkilotlari raqobatbardoshligini oshirishning texnologik, tashkiliy va institutsional omillarni uyg‘unlashtiruvchi kompleks mexanizmi asoslangan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, raqobatbardoshlik, sug‘urta xizmatlari, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, B2B2C modeli, raqamli yetuklik, inson kapitali, kiberxavfsizlik, sug‘urta texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассмотрены современные направления повышения конкурентоспособности рынка страховых услуг в Узбекистане. Предложен подход, основанный на взаимосвязи искусственного интеллекта и аналитики, интеграции услуг на основе модели B2B2C, цифровой зрелости, человеческого капитала и кибербезопасности в обеспечении конкурентоспособности. На основе статистических данных об основных показателях деятельности страховых компаний и развитии цифровых услуг раскрыты практические аспекты указанных направлений. В результате обоснован комплексный механизм повышения конкурентоспособности страховых организаций, предусматривающий гармоничное сочетание технологических, организационных и институциональных факторов.

Ключевые слова: страховой рынок, конкурентоспособность, страховые услуги, цифровая трансформация, искусственный интеллект, модель B2B2C, цифровая зрелость, человеческий капитал, кибербезопасность, страховые технологии.

Abstract. This article examines modern directions for enhancing the competitiveness of the insurance services market in Uzbekistan. An approach based on the interrelationship of artificial intelligence and analytics, integration of services through the B2B2C model, digital maturity, human capital, and cybersecurity is proposed to ensure competitiveness. The practical aspects of these directions are revealed based on statistical data on the key performance indicators of insurance companies and the development of digital services. As a result, a comprehensive mechanism for enhancing the competitiveness of insurance organizations is substantiated, combining technological, organizational, and institutional factors.

Keywords: insurance market, competitiveness, insurance services, digital transformation, artificial intelligence, B2B2C model, digital maturity, human capital, cybersecurity, insurance technologies.

KIRISH

Bugungi kunda jahon sug‘urta bozorida raqobat muhitining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va iste’molchilarning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talablarining o‘zgarishi sug‘urta kompaniyalaridan nafaqat faoliyat samaradorligini oshirish, balki yangi va barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirishni ham talab etmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, Big Data, prediktiv analitika va raqamli platformalarning rivojlanishi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishning an’anaviy biznes jarayonlarini tubdan transformatsiya qilmoqda. Xususan, anderrayting jarayonida xavflarni tezkor va aniq baholash, kleym (zararni baholash va qoplash) jarayonida zararlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish va sug‘urta tovonini tezkor belgilash, shuningdek, mijozlar xatti-harakatlarini prognozlash va individual sug‘urta mahsulotlarini shakllantirish imkoniyatlarining kengayishi sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omilga aylanmoqda.

Mazkur global tendensiyalar O‘zbekiston sug‘urta bozori uchun ham yangi rivojlanish talablarini shakllantirmoqda. Mamlakatda sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, raqamlashtirish, elektron sug‘urta xizmatlarini kengaytirish va sug‘urtalovchilar faoliyatini baholash

mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son qarorida sug‘urta xizmatlarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali rasmiylashtirish hamda sug‘urtalovchilar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati bo‘yicha reyting yuritish mexanizmlarining belgilanganligi sug‘urta kompaniyalari faoliyatida raqamlashtirish, xizmat sifati va samaradorlikni oshirishning institutsional asoslarini mustahkamlamoqda [1]. Shu bilan birga, mazkur jarayonlar sug‘urta tashkilotlarining raqobatbardoshligini zamonaviy, kompleks va raqamli mezonlar asosida baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Sug‘urta xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish faqat texnologik yangilanishlar bilan cheklanib qolmay, sug‘urta kompaniyalarining boshqa moliyaviy va xizmat ko‘rsatish subyektlari bilan o‘zaro integratsiyasini ham taqozo etmoqda. Xususan, sug‘urta xizmatlarini bank, avtomobil va turistik servislar bilan integratsiyalash hamda B2B2C biznes modeli asosida mijozlarga kompleks xizmatlarni yagona raqamli muhitda taqdim etish sug‘urta mahsulotlarining bozor qamrovini kengaytirish, mijozlar uchun qulaylikni oshirish va yangi savdo kanallarini shakllantirish imkonini beradi. Natijada sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligi alohida sug‘urta mahsulotlarining xususiyatlari bilangina emas, balki ularning raqamli ekotizimlardagi ishtiroki, hamkorlik tarmoqlari va mijozlar bilan o‘zaro integratsiyalashuv darajasi bilan ham belgilanadigan bo‘lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarining raqamli yetuklik darajasini aniqlash va uning raqobatbardoshlikka ta’sirini baholash muhim metodologik masala hisoblanadi. Bunda raqamli infratuzilma, elektron sug‘urta xizmatlari, ma’lumotlardan foydalanish va analitik imkoniyatlar, mijozlar bilan raqamli aloqalar, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi kabi mezonlarni kompleks baholash sug‘urta tashkilotlarining raqobatbardoshlik holatini aniqlash imkonini beradi. Biroq raqamli transformatsiyaning samaradorligi nafaqat texnologik infratuzilmaga, balki zamonaviy raqamli kompetensiyalarga ega inson kapitaliga ham bog‘liq. Shu sababli sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlash va ularning professional salohiyatini muntazam oshirish ham raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Bundan tashqari, sug‘urta kompaniyalarining raqamli transformatsiyasi bilan bir qatorda yangi turdagi kiber-risklarning yuzaga kelishi sug‘urta faoliyatida axborot xavfsizligini ta’minlash va kiber-risklarni boshqarish masalasini dolzarb etmoqda. Mijozlarning shaxsiy ma’lumotlari, sug‘urta shartnomalari va moliyaviy axborotlarning raqamli muhitda qayta ishlanishi ularni himoya qilish, kiberxavflarni aniqlash va boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi. Shu jihatdan sun’iy intellekt va analitik yechimlarni anderrayting hamda kleym jarayonlariga joriy etish, sug‘urta xizmatlarini bank, avtomobil va turistik servislar bilan integratsiyalash, sug‘urta kompaniyalarining raqamli yetukligini kompleks baholash, raqamli kompetensiyalarga ega kadrlar salohiyatini oshirish hamda kiber-risklarni boshqarish va sug‘urtalash mexanizmlarini rivojlantirish O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalishlarning sug‘urta xizmatlari raqobatbardoshligini shakllantirishdagi o‘rni tadqiq etilib, ularni kompleks rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar asoslanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug‘urta xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilmoqda. C. Eckert va K. Osterrieder sug‘urta kompaniyalarining raqamli transformatsiyasini tahlil qilib, sun’iy intellekt, Big Data, IoT, bulutli texnologiyalar va boshqa raqamli yechimlarning sug‘urta biznes jarayonlariga ta’sirini ko‘rsatgan. Mualliflar raqamlashtirish natijasida anderrayting va narxlashni takomillashtirish, kleym jarayonlarini avtomatlashtirish, firibgarlikni aniqlash hamda mijozlarga yo‘naltirilgan sug‘urta mahsulotlarini yaratish imkoniyatlari kengayishini ta’kidlaydi [3].

M. Eling, D. Nuessle va J. Staubli sug‘urta qiymat zanjirida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini tizimli ravishda o‘rgangan. Tadqiqotda AI texnologiyalarining mijozlarga xizmat ko‘rsatish, risklarni baholash, anderrayting, sug‘urta da’volarini ko‘rib chiqish va zararlarni qoplash kabi jarayonlarni avtomatlashtirishdagi imkoniyatlari asoslangan [4]. Mualliflarning fikricha, sun’iy intellekt sug‘urta kompaniyalariga operatsion samaradorlik va xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish bilan birga, risklarni aniqlash va boshqarishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

S. Cosma va G. Rimo InsurTech rivojlanishiga bag‘ishlangan bibliometrik va tizimli tadqiqotida sug‘urta sohasidagi texnologik transformatsiyaning asosiy ilmiy yo‘nalishlarini aniqlagan. Tadqiqot natijalari InsurTech doirasida sun’iy intellekt, blokcheyn va risklarni boshqarish masalalariga alohida e’tibor kuchayayotganini ko‘rsatadi [5]. Mualliflar sug‘urta texnologiyalarini faqat texnik masala sifatida emas, balki iqtisodiyot, moliya va axborot texnologiyalarini birlashtiruvchi kompleks yo‘nalish sifatida o‘rganish zarurligini qayd etadi.

K. McDonnell, B. Sheehan va F. Murphy sug‘urta da’volarini prognozlashda Explainable AI yondashuvlarini an’anaviy statistik modellar bilan taqqoslagan. Tadqiqotda katta hajmdagi telematik ma’lumotlardan foydalanish

asosida XGBoost, Random Forest, neyron tarmoqlar va boshqa AI modellarining sug‘urta da’volarini prognozlash imkoniyatlari baholangan [6]. Ushbu tadqiqot AI yechimlarini sug‘urta amaliyotiga joriy etishda nafaqat prognoz aniqligi, balki model natijalarining tushuntiriluvchanligi va tartibga solish talablariga muvofiqligi ham muhimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, raqamli transformatsiyaning sug‘urta kompaniyalari risklariga ta’siri ham alohida tadqiq etilmoqda. Turk iqtisodchi olimlari tadqiqotida mulkiy va javobgarlik sug‘urtasi kompaniyalarining raqamli transformatsiyasi ularning risklarni qabul qilish xususiyatlariga ta’siri empirik ma’lumotlar asosida baholangan [7]. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya risklarni boshqarish imkoniyatlarini yaxshilashi va bu jarayonning kompaniya hajmi hamda transformatsiya modeliga qarab farqlanishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham sug‘urta bozorining raqamlashtirilishi va uning rivojlanish istiqbollari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, S. Kurbonov sug‘urta texnologiyalarini raqamlashtirishning ta’siri va risklarini tahlil qilib, raqamli texnologiyalarni sug‘urta tizimiga joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rgangan [8]. Shuningdek, muallifning boshqa tadqiqotida O‘zbekiston sug‘urta bozorining zamonaviy holati, sug‘urta mukofotlari, sug‘urta tovoni va bozorni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan [9]. Q. Nomozova esa O‘zbekiston sug‘urta bozorini raqamlashtirishning iqtisodiy globallashuvga ta’sirini tadqiq etib, raqamlashtirishning InsurTech, xalqaro integratsiya, raqobat muhiti va sug‘urta ekotizimlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslagan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sug‘urta xizmatlari bozori raqobatbardoshligini baholashda tizimli yondashuv, taqqoslash, statistik tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy, xizmat ko‘rsatish va raqamli faoliyatiga oid ko‘rsatkichlar taqqoslanib, ularning o‘zgarish dinamikasi baholangan.

Tizimli yondashuv asosida raqobatbardoshlikning sun’iy intellekt va analitika, B2B2C integratsiyasi, raqamli yetuklik, inson kapitali va kiberxavfsizlik kabi beshta asosiy yo‘nalishi o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, “APEX INSURANCE” AJ faoliyatiga oid amaliy ko‘rsatkichlardan foydalanilib, taklif etilgan yo‘nalishlarning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati asoslangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori raqobatbardoshligini shakllantirish zamonaviy texnologik rivojlanish, xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlariga moslashish va sug‘urta tashkilotlarining yangi biznes modellariga o‘tishi bilan uzviy bog‘liq. Raqobat muhitining tobora murakkablashib borishi sug‘urta kompaniyalarining an’anaviy faoliyat modeli bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, xizmatlar integratsiyasi, inson kapitali va axborot xavfsizligi kabi omillarni ham qamrab olgan kompleks yondashuvni shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan sug‘urta xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish masalasi alohida yo‘nalishlar emas, balki o‘zaro bog‘liq texnologik, tashkiliy va institutsional omillar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuvda sug‘urta kompaniyalarining raqobat ustunligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi beshta asosiy yo‘nalish ajratiladi. Ular sug‘urta faoliyatining asosiy biznes jarayonlariga sun’iy intellekt va analitik yechimlarni joriy etish, sug‘urta xizmatlarini bank, boshqa moliya-kredit tashkilotlari, avtomobil va turistik servislar bilan integratsiyalash, kompaniyalarning raqamli yetukligini baholash, inson kapitalining professional va raqamli salohiyatini rivojlantirish hamda raqamli sug‘urta xizmatlarida kiberxavfsizlikni ta’minlashni qamrab oladi. Ushbu yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi sug‘urta tashkilotlarining xizmat ko‘rsatish samaradorligi, bozor talablariga moslashuvchanligi va uzoq muddatli raqobat ustunligini mustahkamlash uchun yaxlit mexanizmni shakllantiradi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlari

1. Sug‘urta faoliyatining asosiy biznes jarayonlariga sun’iy intellekt va analitik yechimlarni joriy etish.

Sun’iy intellekt va analitik texnologiyalardan foydalanish sug‘urta tashkilotlarining biznes jarayonlarini takomillashtirish, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va ular asosida tezkor hamda asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur texnologiyalar risklarni baholash, mijozlar ehtiyojini aniqlash, xizmatlarni individuallashtirish va sug‘urta operatsiyalarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli yechimlarning biznes jarayonlariga integratsiyalashuvi xizmat ko‘rsatish tezligi va sifatini yaxshilash, operatsion xarajatlarni maqbullashtirish hamda bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanlikni kuchaytirish orqali sug‘urta tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.


Amaliy jihatdan, mazkur yo‘nalishning sug‘urta tashkilotlari faoliyatidagi ahamiyati kompaniyalarning moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlarida ham namoyon bo‘lmoqda. Xususan, “APEX INSURANCE” AJ ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunida sug‘urta mukofotlari hajmi 4 122 mlrd so‘mga yetib, 2024-yilga nisbatan 50 foizga oshgan, aktivlar 43 foizga, investitsiyalar hajmi esa 109 foizga ko‘paygan. Shu davrda kompaniya tomonidan 868,5 mlrd so‘mlik sug‘urta to‘lovlari amalga oshirilgan hamda kelib tushgan murojaatlarning 98,4 foizi tartibga solingan [13].

Mazkur natijalar bilan bir qatorda, sun’iy intellekt va analitik yechimlardan foydalanishning amaliy samarasi ham qayd etilgan. Jumladan, mijozlarni saqlab qolish va moliyaviy zararlardan himoyalanish imkoniyatini ifodalovchi ko‘rsatkich 8 foizdan 15 foizgacha, barqaror raqobat ustunligi darajasi esa 20 foizga oshgan. Ushbu ko‘rsatkichlar sun’iy intellekt va analitik vositalardan foydalanish sug‘urta tashkilotlarining texnologik salohiyatini kengaytirish, biznes jarayonlari samaradorligini oshirish va raqobat pozitsiyasini mustahkamlash bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

2. Sug‘urta xizmatlarini boshqa moliyaviy va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bilan integratsiyalash.

Sug‘urta xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sug‘urta mahsulotlarini turli moliyaviy va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘lash orqali mijoz uchun yagona

xizmatlar ekotizimini shakllantirish hisoblanadi. Bunda B2B2C modeli sug‘urta kompaniyalari, hamkor tashkilotlar va yakuniy mijoz o‘rtasidagi hamkorlikni raqamli platformalar asosida tashkil etib, sug‘urta mahsulotlarini bank, moliya-kredit, avtomobil, turizm va boshqa servis xizmatlari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Mazkur model mexanizmi va undan kutiladigan asosiy natijalar 2-rasmda aks ettirilgan (2-rasm).



2-rasm. B2B2C modeli asosida sug‘urta mahsulotlari integratsiyasi

“APEX INSURANCE” AJ bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari, avtomobil va turistik xizmatlar hamda turli servis platformalari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali mijozlarga integratsiyalashgan sug‘urta xizmatlarini taqdim etmoqda. Natijada xizmat ko‘rsatish kanallari kengayib, sug‘urta mahsulotlarining mijozlar uchun qulayligi va qamrovi oshib bormoqda. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, kompaniyada 1,5 mln dona amaldagi sug‘urta polisi mavjud bo‘lib, ular bo‘yicha umumiy sug‘urta qoplamasi 878 trln so‘mni tashkil etgan. Avtomobil sug‘urtasi segmentida esa 650 mingdan ortiq avtomobil sug‘urtalangan bo‘lib, kompaniyaning OSAGO bozoridagi ulushi 13 foizga yetgan [13]. Ushbu ko‘rsatkichlar B2B2C modeli asosida turli xizmat tarmoqlari bilan integratsiyalashuv sug‘urta xizmatlari qamrovini kengaytirish, mijozlar bazasini oshirish va sug‘urta tashkilotlarining bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

3. Sug‘urta kompaniyalarining raqamli yetukligini baholash.

Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi sug‘urta tashkilotlarining texnologik imkoniyatlari va raqamli xizmatlar rivojlanish darajasini muntazam baholashni talab etadi. Bunda raqamli infratuzilma, elektron sug‘urta xizmatlari, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlar va analitik vositalardan foydalanish, shuningdek, mijozlar bilan raqamli aloqalar kabi mezonlar kompaniyaning raqamli yetukligini tavsiflovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mezonlarni kompleks baholash sug‘urta tashkilotlarining raqamli salohiyatini aniqlash va uning raqobatbardoshlikka ta’sirini baholash imkonini beradi.

Mazkur yondashuvning amaliy ahamiyati “APEX INSURANCE” AJ faoliyatidagi raqamli xizmatlar ko‘lami va ulardan foydalanish imkoniyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kompaniya mijozlarga sug‘urta polislarini onlayn rasmiylashtirish, muddatini uzaytirish, elektron to‘lovlarni amalga oshirish va polisning haqiqiyligini masofadan tekshirish imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

4. Inson kapitalining raqamli va professional salohiyatini oshirish.

Sug‘urta bozorining raqamli transformatsiyasi yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, ulardan samarali foydalanishga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabni ham oshirmoqda. Zamonaviy sug‘urta faoliyatida aktuar hisob-kitoblar, anderrayting, risklarni boshqarish, raqamli xizmatlar va ma’lumotlar tahlili bilan bog‘liq kompetensiyalar kompaniyalarning biznes jarayonlari samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois sug‘urta tashkilotlarining yuqori boshqaruv organlari va mutaxassislari uchun sug‘urta ishi, raqamli texnologiyalar hamda risklarni boshqarish yo‘nalishlarida muntazam malaka oshirish tizimini rivojlantirish raqobatbardoshlikni mustahkamlovchi omillardan biri sifatida taklif etiladi.

Mazkur yondashuvning amaliy ahamiyati sug‘urta bozorida kuzatilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq. Xususan, sug‘urta kompaniyalarining mahsulot va xizmatlari kengayib borishi bilan birga, ularni boshqarish, risklarni baholash, mijozlarga raqamli xizmat ko‘rsatish va yangi sug‘urta mahsulotlarini shakllantirishga qodir mutaxassislarga ehtiyoj ortmoqda. Ayrim sug‘urta kompaniyalari faoliyatidagi asosiy

ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlari ham bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi raqobatning nafaqat moliyaviy resurslar, balki xizmat ko‘rsatish modeli, mijozlar bazasi va texnologik imkoniyatlar orqali shakllanayotganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval
O‘zbekistondagi ayrim sug‘urta kompaniyalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari [11, 12, 13]

Sug‘urta kompaniyasi	Ko‘rsatkich	2025-yil hajmi	2024-yilga nisbatan o‘sish	Mazmuni
MY-INSURANCE	Sug‘urta mukofotlari	723,73 mlrd so‘m	+68,5 %	Sug‘urta mukofotlari hajmining yuqori sur’atlarda o‘sishi
	Da’vo to‘lovlari	245,32 mlrd so‘m	+48,0 %	Sug‘urta majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlar hajmining kengayishi
	Faol shartnomalar	1,27 mln dona	+43,2 %	Sug‘urta xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar qamrovining kengayishi
GROSS SUG‘URTA	Sug‘urta mukofotlari	629,08 mlrd so‘m	+41,1 %	Sug‘urta portfeli hajmining o‘sishi
	Da’vo to‘lovlari	219,25 mlrd so‘m	+100,0 %	Sug‘urta to‘lovlari hajmining sezilarli kengayishi
APEX INSURANCE	Hayot sug‘urtasi mukofotlari	367,61 mlrd so‘m	+102,7 %	Hayot sug‘urtasi segmentida sug‘urta mukofotlari hajmining jadal o‘sishi
	Mijozlar soni	1,5 mln nafar	-	Mijozlar bazasining kengligi
	Sug‘urta qamrovi	878 trln so‘m	-	Sug‘urta majburiyatlari doirasidagi qamrov hajmi

1-jadval ma’lumotlari sug‘urta kompaniyalari faoliyatida bozor qamrovi, sug‘urta mukofotlari hajmi, da’vo to‘lovlari va mijozlar bazasi kabi ko‘rsatkichlarning sezilarli farqlanishini ko‘rsatadi. Xususan, MY-INSURANCE kompaniyasida sug‘urta mukofotlari 723,73 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 68,5 foizga oshgan. Faol shartnomalar sonining 1,27 mln donaga yetishi esa sug‘urta xizmatlaridan foydalanish ko‘lami kengayganini ifodalaydi. GROSS SUG‘URTAda sug‘urta mukofotlari 629,08 mlrd so‘mga yetgan bo‘lsa, da’vo to‘lovlari hajmining 100 foizga o‘sishi kompaniyaning sug‘urta majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlari sezilarli ravishda kengayganini ko‘rsatadi.

APEX LIFE INSURANCEda hayot sug‘urtasi mukofotlarining 102,7 foizga o‘sishi ushbu segmentda sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab va kompaniya faoliyati ko‘lamining kengayganini ifodalaydi. APEX INSURANCEning 1,5 mln nafar mijozni qamrab olishi va 878 trln so‘mlik sug‘urta qoplamasiga ega bo‘lishi esa kompaniyaning xizmatlar ko‘lami va bozor qamrovini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman, keltirilgan ko‘rsatkichlar sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi raqobatning moliyaviy natijalar, mijozlar bazasi va xizmatlar qamrovi bilan bir qatorda, texnologik imkoniyatlar va inson kapitali salohiyati bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Raqamli sug‘urta xizmatlarining kengayishi, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va yangi mahsulotlarning shakllanishi xodimlardan an’anaviy sug‘urta bilimlari bilan bir qatorda raqamli va analitik kompetensiyalarni ham talab etmoqda. Shu jihatdan professional malakani muntazam yangilab borish sug‘urta tashkilotlarining texnologik o‘zgarishlarga moslashuvi va xizmatlar sifatini barqaror saqlashning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

5. Raqamli sug‘urta xizmatlarida kiberxavfsizlikni ta’minlash va kiber-risklarni boshqarish.

Sug‘urta xizmatlarining raqamli kanallarga o‘tishi mijozlarning shaxsiy ma’lumotlari, moliyaviy axborotlari va sug‘urta shartnomalariga oid ma’lumotlarni himoya qilishga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, onlayn elektron tijorat xizmatlarini ko‘rsatishda axborot tizimlari va resurslaridan himoyalangan tarzda foydalanish, shuningdek, kiber-risklarni aniqlash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish sug‘urta tashkilotlarining raqamli faoliyati barqarorligini ta’minlovchi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-martdagi PF-38-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlik strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”dagi tegishli yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashgan [2]. Mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish natijasida 2026-yilning birinchi choragida sug‘urta tashkilotlarining onlayn elektron tijorat xizmatlarini ko‘rsatishda axborot tizimlari va resurslarini himoyalash darajasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12 foizdan 30 foizgacha oshgan. Bu 18 foiz punktlik o‘sish raqamli sug‘urta xizmatlarida axborot xavfsizligi choralarining kengayganini

ifodalaydi.

Mazkur natijalar sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida kiberxavfsizlikni alohida texnik masala sifatida emas, balki xizmatlarning uzluksizligi, mijozlar ishonchi va sug‘urta tashkilotlarining raqamli raqobatbardoshligini ta’minlovchi tarkibiy omil sifatida qarashni asoslaydi.

Shu tariqa, sug‘urta xizmatlari bozori raqobatbardoshligini oshirish texnologik yangilanishning alohida yo‘nalishlari bilan cheklanmay, sun’iy intellekt va analitika, xizmatlararo integratsiya, raqamli yetuklik, inson kapitali va kiberxavfsizlikning o‘zaro uyg‘un rivojlanishiga tayanadi. Ushbu yo‘nalishlarning birgalikdagi rivoji sug‘urta tashkilotlarining biznes jarayonlarini takomillashtirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli muhitdagi xavflarni boshqarish va bozordagi raqobat pozitsiyasini mustahkamlash uchun kompleks asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori raqobatbardoshligini oshirish zamonaviy texnologiyalar, xizmatlar sifati, mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchanlik va boshqaruv samaradorligini uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq. Sug‘urta tashkilotlarining bozordagi mavqeini mustahkamlashda an’anaviy faoliyat bilan bir qatorda raqamli transformatsiya va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt va analitik vositalardan foydalanish, sug‘urta xizmatlarini boshqa moliyaviy va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bilan integratsiyalash hamda raqamli xizmatlarni kengaytirish sug‘urta kompaniyalarining bozor talablariga moslashish imkoniyatlarini oshiradi. Bunday yondashuvlar xizmat ko‘rsatish jarayonlarining tezligi, qulayligi va samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, sug‘urta kompaniyalarining raqamli yetukligini muntazam baholash va inson kapitalining professional hamda raqamli salohiyatini rivojlantirish texnologik o‘zgarishlarga moslashishning muhim sharti hisoblanadi. Malakali mutaxassislar va rivojlangan raqamli kompetensiyalar yangi sug‘urta mahsulotlari hamda xizmatlarini joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli sug‘urta xizmatlarining kengayishi bilan birga axborot tizimlari xavfsizligi va kiber-risklarni boshqarish masalalarining ahamiyati ham ortadi. Shu sababli raqamlashtirish, xizmatlar integratsiyasi, inson kapitali va axborot xavfsizligini yagona tizim doirasida rivojlantirish sug‘urta bozorining barqaror faoliyati uchun muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman, O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori raqobatbardoshligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Sun’iy intellekt va analitika, B2B2C modeli, raqamli yetuklik, inson kapitali va kiberxavfsizlikning o‘zaro uyg‘unligi sug‘urta tashkilotlarining xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish, mijozlar talablariga moslashish va bozor rivojlanishining zamonaviy talablariga javob berish uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-8099390
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-38-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-8079286
3. Eckert C., Osterrieder K. How digitalization affects insurance companies: overview and use cases of digital technologies // Zeitschrift für die gesamte Versicherungswissenschaft. – 2020. – Vol. 109. – P. 333–360. – DOI: 10.1007/s12297-020-00475-9.
4. Eling M., Nuessle D., Staubli J. The impact of artificial intelligence along the insurance value chain and on the insurability of risks // The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice. – 2022. – Vol. 47. – P. 205–241. – DOI: 10.1057/s41288-020-00201-7.
5. Cosma S., Rimo G. Redefining insurance through technology: Achievements and perspectives in Insurtech // Research in International Business and Finance. – 2024. – Vol. 70. – Article 102301. – DOI: 10.1016/j.ribaf.2024.102301.
6. McDonnell K., Sheehan B., Murphy F. Bridging transparency in insurance claims prediction: A comparative study of explainable AI and traditional linear models using vehicle telematics data // Technological Forecasting and Social Change. – 2026. – Vol. 223. – Article 124418. – DOI: 10.1016/j.techfore.2025.124418.
7. Kırkbeşoğlu E., Ergüner E., Sönmez S.S. Redefining risk management in the insurance industry: the role of digital adoption // Journal of Risk Research. – 2025. – Vol. 28, No. 12. – P. 1401–1419. – DOI: 10.1080/13669877.2025.2588586.
8. Kurbonov S. Sug‘urta texnologiyalarini raqamlashtirishning ta’siri va risklari // Moliya va bank ishi. – 2022. – 8-jild, 4-son. – B. 106–112.
9. Kurbonov S. O‘zbekiston sug‘urta bozorining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari // Moliya va bank ishi. – 2023. – 9-jild, 1-son. – B. 28–32.
10. Nomozova Q.I. O‘zbekiston sug‘urta bozorining iqtisodiy globallashuv jarayonlariga raqamlashtirishning ta’sir yo‘nalishlari // O‘zbekiston sug‘urta bozori. – 2025. – 2-jild, 6-son. – B. 9–13. – DOI: 10.55439/INS/vol2_iss6/337.
11. https://myinsurance.uz – “MY-INSURANCE” AJning rasmiy veb-sahifasi.
12. https://gross.uz – “GROSS SUG‘URTA” AJning rasmiy veb-sahifasi.
13. https://aic.uz – “APEX INSURANCE” AJning rasmiy veb-sahifasi.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100